

**BUYUK IPAK YO‘LI SIVILIZATSIYALARI: GLOBAL
INSONIYAT MADANIYATI VA ILM-FAN
TARAQQIYOTIGA QO‘SHGAN HISSASI**

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

IPAK YO‘LI INNOVATSIYALAR UNIVERSIETI

**“BUYUK IPAK YO‘LI SIVILIZATSIYALARI: GLOBAL INSONIYAT
MADANIYATI VA ILM-FAN TARAQQIYOTIGA QO‘SHGAN HISSASI
MAVZUIDAGI**

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami

Olmaliq-2025



Mavlyuda Xalilova	283
An'anaviy musiqa va bugungi pedagoglik masalalari	
Mahliyo Turdixo'jayeva Muqimxo'ja qizi	287
Farg'ona vodiysi tarixi "o'zbekiston arxeologiyasi" jurnali sahifalarida: yo'nalishlar va yondashuvlar	
Davronova Aziza	293
Sharq va g'arb xalqlari musiqa madaniyatining o'zaro integratsiyasi jarayonlari	
G'apbarov Abbasjon Islomjon o'g'li	297
Ilk o'rta asrlarda buyuk ipak yo'li sharq va g'arb xalqlarining musiqa san'ati shakllanishi	
G'ofurov Zafar	301
Buyuk ipak yo'li, sharq xalqlari musiqasiga g'arb ohanglar oqimining ijodiy uyg'unlashuvi	
Ibragimov Abdinabi Begimqulovich	305
Buyuk ipak yo'li davrida o'zbek maqomlarining tarixiy shakllanishi va zamonaviylik	
Yuldashev Maxamadjon Usubjonovich	310
Buyuk ipak yo'li davlatlarida, sharq musiqa madaniyatining pedagogikasi	
Rizayev Xusniddin Toxtamyrovovich, Abdushukurov Abdurahob Abdushukur o'g'li, Ergashaliyeva Soliha Ibroximjon qizi	312
Muhandislik va kompyuter grafikasi fanlarini o'qitishda innovatsion yondashuvlar: dolzarb muammolar va istiqbollar	
Ayubov Qobil Zaidovich	317
"Ovozni to'g'ri yo'lga qo'yish" darslarida xonanda talabalar bilan musiqiy asarlardagi talaffuz va urg'ular ustida ishlash muammolari hamda ularni bartaraf qilish yo'llari	
Akbarova Sayyora Sobirovna	324
Karvon yo'lida kechgan so'zlar madaniyati	
Bakayev Xiroj	330
Maqom ijrochiligida ovoz balandligini nazorat qilish usullari	
Mirxalilova Nargiza Akbarovna	336
3-7 yoshli bolalarda milliy tarbiyani amalga oshirishning mazmuni	
Mirzayev Farxod Komiljonovich	341
Ipak yo'li davlatlarida, maqom san'ati borasidagi mulohazalar	
Munajatxon Yo'lbegova	345
Sharq va g'arb madaniy aloqalari	
J.Sh. Achilov, D.A. Nazarova	351
Yozma qo'shish va ayirish mavzusini o'qitish metodikasi	
Nazarov Doniyor	354
Buyuk ipak yo'li davlatlarida professional o'zbek san'ati	
Zakirova Matluba Rayim qizi	358
Axborotlashgan jamiyatda talaba yoshlarda milliy o'zlikni shakllantirish	
Sadriddinov Mo'minjon	361
Buyuk ipak yo'li davlatlari orasidagi xorazmda, ustoz-shogird an'anasining tarixiy rivoji va hozirgi holati	
Isakov Abror	364
O'zbek milliy musiqa tarixiga bir nazar	
Nozimova Sarvinoz Kamolxon qizi	368
Ipak yo'lida joylashgan xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalar	
Sadriddinov Mo'minjon	372
Madaniyat va san'at sohasida kadrlar tayyorlash istiqbollari	
Vaisov Mansur	375
Buyuk ipak yo'li davlatlaridagi milliy Qo'qon yallalari	
Ashirova Sojida Baxramovna	381
Kattalar va bolalar psixologiyasi o'rtasidagi uzviylikning asosiy jihatlari	

FARG'ONA VODIYSI TARIXI "O'ZBEKISTON ARXELOGIYASI" JURNALI SAHIFALARIDA: YO'NALISHLAR VA YONDASHUVLAR

Mahliyo Turdixovajeva Muqimxovajeva qizi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

PhD

ORCID-ID:0009-0008-5599-9647

Annotatsiya. Mazkur maqolada "O'zbekiston arxeologiyasi" jurnalida chop etilgan Farg'ona vodiysi arxeologiyasiga oid ilmiy maqolalar tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida jurnal sahifalarida yoritilgan Farg'ona vodiysi qadimiy madaniyat qatlamlari, arxeologik yodgorliklari, joylashuv xususiyatlari hamda o'rganilgan davrlarning ilmiy talqini o'rganildi. Shuningdek, maqolalarda qo'llanilgan metodologik yondashuvlar, ilmiy xulosalar va yangi topilmalar tahlil qilinib, Farg'ona vodiysi arxeologik tadqiqotlarining rivojlanish tendensiyalari aniqlab berilgan. Tadqiqot natijalari O'zbekiston arxeologiyasi ilmiy maktabining shakllanishida mazkur jurnalning o'rni va ahamiyatini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar. Farg'ona vodiysi, O'zbekiston arxeologiyasi, arxeologik tadqiqotlar, ilmiy tahlil, arxeologik yodgorliklar, metodologiya, ilmiy yondashuv, madaniyat qatlamlar.

Abstract. This article analyzes scientific papers on the archaeology of the Fergana Valley published in the journal "Archaeology of Uzbekistan." During the research, the articles featured in the journal were examined in terms of the ancient cultural layers of the Fergana Valley, its archaeological sites, geographical features, and scholarly interpretations of various historical periods. The methodological approaches, scientific conclusions, and newly discovered findings presented in these studies are also analyzed to identify the main trends in the development of archaeological research in the Fergana Valley. The results demonstrate the significant role of this journal in the formation and advancement of the archaeological school of Uzbekistan.

Keywords. Fergana Valley, Archaeology of Uzbekistan, archaeological research, scientific analysis, archaeological sites, methodology, scholarly approach, cultural layers.

Arxeologik tadqiqotlar yangiliklarining jamoatchilikka yetib borishi materiallarni nashr etish samaradorligi darajasiga bog'liq. Shuni yodda tutish kerakki, fundamental monografiyalar bilan bir qatorda, dastlabki xabarlarni nashr qilish orqali dolzarb masalalarni tezkor e'lon qilish muhim ahamiyatga ega⁸⁶. Amalga oshirilgan ishlar hisobotlarini kichik nashrlar ko'rinishida imkon qadar tezroq chop etish tarixdagi bo'shliqlarni to'ldirishga imkon beradi. T. Shirinov ta'kidlaganidek, arxeologlar oldida ikki muhim vazifa bo'ladi: birinchisi, topilmalarni saqlash; ikkinchisi esa, eng dastlabki o'rganish natijasi bilan ilmiy jamoatchilikni tezkor xabardor etish⁸⁷. Ayni ikkinchi vazifani bajarish uchun har

⁸⁶ Джуракулов М.Д., Аванесова Н.А. Историография эпохи бронзы Средней Азии. – Самарканд: Сам.ГУ, 1983. – С. 60.

⁸⁷ Ширинов Т.Ш., Матбобоев Б.Х. Мустақиллигимиз 10 йиллигида Ўзбекистон археологияси // Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар 2000-йил. – Самарканд, 2001. № 1. – Б. 3-14.

yili turli jurnal va to'plamlarda maqolalar nashr etish muhim hisoblanadi.

Ular orasida "O'zbekiston arxeologiyasi" jurnali arxeologik natijalarni nashr qilishda muhim ahamiyatga ega. Jurnalda tadqiq etilayotgan mintaqa arxeologiyasiga oid maqolalarni mazmun jihatdan to'rt guruhga bo'lish mumkin:

1. Tosh davriga oid maqolalar;
2. Shaharsozlik va urbanizatsiya muammolari yoritilgan tadqiqotlar;
3. Moddiy madaniyat muammolari aks etgan maqolalar;
4. Nazariy-metodologik muammolarga bag'ishlangan tadqiqotlar.

Birinchi guruhga oid maqolalar guruhiga A.A. Anorboyev, A.Y. Rajabov, S.T. Mirsoatova, B.K. Sayfullayev, B.X. Matboboyev, X.B. Xoshimov, B.M. Abdullayev kabi paleolitshunos arxeolog-tarixchilar tomonidan nashr etilgan ishlar⁸⁸ kiradi. Ushbu yo'nalishda Farg'ona vodiysiga bag'ishlangan maqolalar umumiy to'qqiztani tani tashkil etadi. Ushbu mazmundagi tadqiqotlarda asosan, paleolit davri manzilgohi Selungurdan topilgan odam yoshini aniqlash muammolari hamda ibtidoiy migratsiya yo'llari kabi masalalar ko'proq yoritilgan.

Xususan, B.K. Sayfullayevning maqolasida bundan 50 ming yillar muqaddam tosh davrida Toshkent vohasida yashovchi qadimgi xalqlarning Qamchiq dovoni orqali Farg'ona vodiysiga ko'chib o'zlashtirilganligi isbotlangan. Shuningdek, homo-erektrus vakili hisoblangan "fergantrop", o'rta paleolit manzilgohi Cho'ng'ara qishlog'i, 2011-yilning eng shov-shuvli kashfiyoti bo'lgan Sariqo'rg'on va Egriqulatasoy makonlari, Andijon viloyatida ibtidoiy odam izlari tahlili yoritilgan maqolalar o'rin olgan⁸⁹.

Ikkinchi guruhga tegishli maqolalar mualliflari A.A. Anorboyev, A.A. Asqarov, B.M. Abdullayev, Sh.S. Nasriddinovlar⁹⁰ Farg'ona vodiysining ilk shaharsozlik madaniyatini ochib berishgan.

Ushbu mavzuda A.A. Anorboyevning maqolasi umumiy maqolalar sonini yarmini tashkil etadi. A.A. Asqarov va A.A. Anorboyevlar vodiy arxeologiyasida bahsli bo'lgan Dovon poytaxti masalasiga bag'ishlab maqola e'lon qilishgan. Chunonchi, A.A. Anorboyevning ushbu muammo doirasidagi maqolasi Ershi lokalizatsiyasini yana bir bor ochiqlab bergan. Olimning keyingi maqolasi XII-XIII asr Axsikent mudofaa devori istehkomlariga bag'ishlanib, unda dushmandan himoyalaniish uchun qurilgan ikki qator yog'och sinch mudofaa devori Samarqand devori bilan qiyoslangan. A.A. Asqarov esa maqolasida Marhamatga tashrif taassurotlarini yoritgan. Farg'ona vodiysi urbanizatsiyaning ayrim xususiyatlarini

⁸⁸ Анарбаев А.А., Ражабов А.Ю. Фарғона ибтидоий даври тарихининг ёритилмаган бўғини // Ўзбекистон археологияси. 2013. № 1. – Б. 3-12; Мирсоатова С.Т. Ўзбекистоннинг тош даври ёдгорликлари хронологиясига доир // Ўзбекистон археологияси. 2017. № 1. – Б. 3-7; Матбабаев Б.Х., Абдуллаев Б.М., Хошимов Х.Б., Сайфуллаев Б.К. Следы первобытного человека в Андижанской области // Ўзбекистон археологияси. 2018. № 2. – С. 116-142.

⁸⁹ Матбабаев Б. Х., Абдуллаев Б. М., Хошимов Х. Б., Сайфуллаев Б. К. Следы первобытного человека в Андижанской области // Ўзбекистон археологияси. 2018. № 2. – С. 116-142.

⁹⁰ Анарбаев А.А. Яна Фарғона (Даван-Дайюан) пойтахт шаҳарларининг локализацияси ва у билан боғлиқ мунозарали масалалар ҳақида // Ўзбекистон археологияси. 2010. № 1. – Б. 65-73; Асқаров А.А. Марҳаматга ташриф ва Ерши мудофааси ҳақида мулоҳазалар. – Б. 144-153; Абдуллаев Б.М. Қадимги Фарғона урбанизациясининг айрим хусусиятлари // Ўзбекистон археологияси. 2016. № 2. – Б. 13-23; Анарбаев А.А., Насриддинов Ш. Ахсикент ёдгорлигида 2018-2019-йилларда олиб борилган археологик тадқиқотлар ва у ерда ташкил қилинаётган "Очиқ осмон остида музей" ҳақида // Ўзбекистон археологияси. 2019. № 2. – Б. 132-138.

ifodalagan B.M. Abdullayevning tadqiqotidan ko‘rinadiki, antik va ilk o‘rta asrlar me‘moriy rivojlanishida ko‘chmanchi va o‘troq an‘analari o‘zaro ta‘sir ko‘rsatgan, ayniqsa shaharning aylana va kvadrat shakli buni isbotlaydi.

Uchinchi guruh maqolalar ko‘pchilikni tashkil etib, umumiy 33 tadan 11 tasi ushbu guruhga mansub maqolalar hisoblanadi. Unda D.K. Mirzamedov, B.X. Matboboyev, M.H. Sultonova, G.P. Ivanov, L.Yu. Shpeneva, B. Abdulg‘oziyeva, B.M. Abdullayev, M.A. Reutovlarning⁹¹ ilmiy ishlari o‘rin olgan.

2010-yil ilk sonda e‘lon qilingan birinchi maqola Andijonning o‘rta asrlar keramikasi tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, u bilan tanishish Andijon o‘rta asr kulolchilik buyumlari Xitoy chinnichiligiga katta ta‘sir o‘tkazganini ochib berdi. G.P. Ivanovning Rishtonda olib borgan 2010-yil arxeologik qazishmalari natijasiga bag‘ishlangan keyingi maqola xoch tasvirli cherkov sharob idishi qopqog‘ining topilishi X-XII asrlarda Rishtonda nasroniy jamoasi hukm surganidan xabar beradi. Bundan xulosa qilish mumkinki, Farg‘ona vodiysida o‘rta asrlarda nasroniylik keng yoyilgan.

Axsikent va Quvaning shisha buyumlarini jiddiy tadqiq etgan J.K. Mirzamedovning maqolasida XI asrga oid Quva suyuqlik saqlashda ishlatilgan grafin tahlili, Axsikentdan topilgan parfyumeriya-farmasevtika idishlarining 50 dan ortiq shisha bo‘laklari xususiyatlari keltirilgan. Shuningdek, Axsikentdan topilgan dori vositalarini saqlashga mo‘ljallangan shaffof shisha, muallif ta‘kidlaganidek, Beruniyning “Mineralogiya”⁹² asarida shishaga berilgan ta‘rifga mos tushadi. Ya‘ni, shisha juda shaffof bo‘lishi, ichida nima borligi ko‘rinib turishi lozim. Bundan tashqari, maqolada Quvadan topilgan XI asrga tegishli gul suvi saqlangan, xushbo‘y hidli shisha idishdan nafaqat kosmetika balki, dorivor malhamlarni saqlashda foydalanilganini ko‘rsatadi. Dissertant fikricha, natijalar Quvaning Markaziy Osiyoda ishlab chiqaruvchi va eksport qiluvchi hudud sifatida faoliyat yuritganini isbotlaydi.

Farg‘ona va Shoshning o‘zaro madaniy aloqalarini sopol buyumlar va ulardagi turli bezaklar orqali yoritishga uringan B. Abdulg‘oziyeva Burgulik madaniyati tadqiqotlaridan kelib chiqib, Toshkent vohasi dehqonchilik madaniyatining Chust-Eylaton ta‘sirida rivojlanganini yoritib beradi. Shuningdek, B. Abdulg‘oziyevaning qoraxoniylar davrida Quvada kulolchilik yuqori darajada rivojlanganligini asoslovchi sopollarga bag‘ishlangan ma‘lumotlari ham o‘rin olgan⁹³. Topilmalar orasida buqa shoxini esga soluvchi bezak tushirilgan parcha

⁹¹ Мирзахмедов Ж. К., Матбобоев Б.Х., Султонова М.Н. Андигоннинг ўрта аср сопол идишлари // Ўзбекистон археологияси. – Самарқанд, 2010. № 1. – С. 73-79; Иванов Г.П. Риштон шаҳри тарихи бўйича янги маълумотлар // Ўзбекистон археологияси. – Самарқанд, 2011, № 1. – С. 82-84; Шпенева Л.Ю. Фарғона ва Шошдан топилган теурийлар хазинасидаги Мовароуннахрда зарб этилмаган мис тангалар // Ўзбекистон археологияси. – Самарқанд, 2012. № 2. – С. 45-54; Абдулгазиева Б. К исследованию керамики Кувы XI-XII вв // Ўзбекистон археологияси. – Самарқанд, 2016. № 2. – С. 31-43; Абдуллаев Б.М. Некоторые итоги раскопок 2014-2015 гг. на памятнике Коштепа-2 // Ўзбекистон археологияси. – Самарқанд, 2016. № 1. – С. 25-49; Матбобоев Б.Х., Реутова М.А. Мунчоктепа мозорқўргони. Органик материалларда тайёрланган буюмлар реставрацияси (V-VI асрлар) // Ўзбекистон археологияси. – Самарқанд, 2019. № 1. – С. 56-63.

⁹² Абу Райхан Мухаммед ибн Ахмед Ал-Бируни. Собрание сведений для познания драгоценностей (минералогия) (перевод А.М. Беленицкого). – Санкт-Петербург, 2011. – С. 213-222.

⁹³ Абдулгазиева Б. К исследованию керамики Кувы XI-XII вв // Ўзбекистон археологияси. – Самарқанд, 2016. № 2. – С. 31-42.

Afrosiyob sopol buyumlariga o'xshashi aniqlangan. Demak, Quvada qoraxoniylar davrida kulolchilik yuqori darajada rivoj topganligini xulosa qilsa bo'ladi.

Andijon viloyatiga joylashgan "Qo'shtepa-2" manzilgohida arxeologik izlanishlar olib borgan B.M. Abdullayev aholi punktidan sopol buyumlarni topgan va uning natijalarini e'lon qilgan⁹⁴. Maqolada diniy marosim funksiyasini bajaruvchi sopol buyumlar haqida ma'lumot beriladi. Ko'p qatlamli bo'lgan manzilgohdan olim uchburchak shakldagi o'q uchlarini qo'lga kiritadi. Tahlillardan Qo'shtepa buyumlarida Turk xoqonligi ta'siri sezilarli darajada ekanligi haqida xulosa qilish mumkin. Topilmalar orasida turk xoqonligi belgisi tushirilgan tamg'a ham buni isbotlaydi. Muallifning yozishicha, ushbu manzilgohning hunarmandlar turar-joy qismi arablar davrida yoqib yuborilgan.

2019-yilda nashr etilgan maqolada B.X. Matboboyev va M.A. Reutovanning Munchoqtepadan topilgan V-VI asrlarga oid topilmalar restavratsiyasi masalasi olib chiqqan⁹⁵.

Z. Qorayeva ilk o'rta asr Farg'ona tumor-taqinchoqlari mavzusini Munchoqtepa misolida ochib berib, 2020-yil 4-sonda e'lon qilgan⁹⁶. Xuddi shu sonda Sh. Omonovning Axsikentdan topilgan qo'lda yasalgan bezakli "choynak" haqidagi qarashlari e'lon qilingan⁹⁷. Z. Qorayeva Munchoqtepa topilmalarini mantiqiy davomi sifatida 2021-yil 2-sonda halqa va uzuk topilmalar tasnifini keltirgan⁹⁸.

To'rtinchi guruh maqolalari B.M. Abdullayev, B.X. Xoshimov, B.X. Matboboyev, Z.Z. Mashrabov, J.Z. Ahmedov, A. Muhammadiyev, M. Xotamovalarning arxeologik izlanishlar natijalarini⁹⁹ o'z ichiga oladi. Qiziq jihati shuki, mualliflarning barchasi nazariy-metodologik masalalardagi muammolarni Andijon arxeologiyasi doirasida yoritishga urinishgan. Bunda asosiy tadqiqot markazi sifatida Mingtepa ko'rib chiqilgan.

Bundan tashqari, A. Muhammadiyevning maqolasida paleolitda tosh xomashyosidan foydalanish muammolari, Z.J. Ahmedov va X.B.

⁹⁴ Абдуллаев Б.М. Некоторые итоги раскопок 2014-2015 гг. на памятнике Коштепа-2 // Ўзбекистон археологияси. – Самарқанд, 2016. № 1. – С. 25-49.

⁹⁵ Матбабаев Б. Могильник Мунчактепа. Реставрация изделий из органических материалов (V-VI вв) // Ўзбекистон археологияси. – Самарқанд, 2019. № 1. – С. 56-63.


⁹⁶ Караева З. К изучению амулетов-украшений раннесредневековой Ферганы (по материалам Мунчактепа) // Ўзбекистон археологияси. – Самарқанд, 2020. № 4. – С. 97-102.

⁹⁷ Оманов Ш. Ахсикентдан топилган қўлда ясалган безакли "чойнка" тўғрисида // Ўзбекистон археологияси. – Самарқанд, 2020. № 4. – С. 103-107.

⁹⁸ Караева З. Кольца и перстни из раннесредневекового могильника Мунчактепа // Ўзбекистон археологияси. – Самарқанд, 2021. № 2. – С. 68-74.

⁹⁹ Абдуллаев Б.М., Хошимов Х.Б. Проблемы изучения древней и средневековой истории Ферганской долины // Ўзбекистон археологияси. – Самарқанд, 2015. № 1. – С. 118-121; Абдуллаев Б., Хошимов Х.Б. Фарғона водийсининг қадим ва ўрта асрлар тарихини ўрганиш муаммоси (Халқаро конференция: Андижон, 9 октябрь 2013 й.) // Ўзбекистон археологияси. – Самарқанд, 2014. № 1. – С. 135-138; Матбабаев Б., Машрабов З. Қадим ва ўрта асрларда Андижон (тарихий-археологик татқиқотлар) // Ўзбекистон археологияси. – Самарқанд, 2014. № 1. – Б. 131-135; Аҳмедов Ж.З., Хошимов Б.Х. Археологик объектларни музейлаштириш муаммолари (Фарғона водийси ёдгорликлари мисолида) // Ўзбекистон археологияси. – Самарқанд, 2016. № 2. – Б. 79-83; Мухаммадиев А. Палеолитда тош-хомашёсидан фойдаланиш муаммоси // Ўзбекистон археологияси. – Самарқанд 2020. № 4. – Б. 53-69; Хотамова М. Биоархеология ва унинг татқиқот усуллари // Ўзбекистон археологияси. – Самарқанд, 2020. № 3. – Б. 44-56.

Xoshimovlarning 100 maqolasida esa arxeologik obyektlarni muzeylashtirish masalalarini ham tahlil uchun olib chiqqanligini ko‘rish mumkin. Artefaktlar qoldiqlari yordamida o‘tmishdagi insonlar boshidan kechirgan tarixiy jarayonlarni tiklashga yordam beruvchi bioarxeologiya va uning tadqiqot usullariga bag‘ishlangan M. Xotamovaning ilmiy ishlari ham to‘plamdan o‘rin olgan. Davriy nashr tahlilidan aniqlandiki, “O‘zbekiston arxeologiyasi” jurnalining 2010-2024-yillar oralig‘ida chop etilgan Farg‘ona vodiysi arxeologiyasiga bag‘ishlangan maqolalarning 37% moddiy madaniyat topilmalariga, 18% nazariy muammolarga, 18% urbanizatsiya masalalariga va 27% tosh davri manzilgohlariga bag‘ishlangan. (Ilovaga qarang). “O‘zbekiston arxeologiyasi” jurnali sahifalarida yoritilgan Farg‘ona vodiysi arxeologiyasiga oid ilmiy maqolalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, vodiyning qadimiy madaniy qatlamlarini o‘rganish masalasi mamlakat arxeologiyasida alohida ilmiy yo‘nalishga aylangan. Jurnal materiallarida Farg‘ona vodiysi hududida olib borilgan qazishmalar, topilmalar va madaniyat qatlamlari bo‘yicha yirik ilmiy natijalar tizimli ravishda chop etilib, arxeologik jarayonlarning bosqichma-bosqich o‘rganilishiga imkon yaratgan. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda ilmiy maqolalarda metodologik yondashuvlar kengayib, madaniyatlararo aloqalar, shaharsozlik, metallurgiya, sopolchilik va dafn marosimlariga doir masalalarga kompleks yondashuv kuchaygan. “O‘zbekiston arxeologiyasi” jurnali ushbu jarayonlarda nafaqat ilmiy natijalarni e‘lon qilish maydoni, balki Farg‘ona vodiysi arxeologik maktabining shakllanishi va rivojlanishida muhim platforma vazifasini bajarmoqda. Natijada, mazkur jurnal materiallari asosida o‘tkazilgan tahlillar Farg‘ona vodiysi arxeologiyasi bo‘yicha tadqiqotlarning yo‘nalishlari, metodologiyasi va ilmiy muammolarini aniqlash, shuningdek, O‘zbekiston arxeologiyasi tarixini chuqurroq anglash uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Абдулгазиева Б. К исследованию керамики Кувы XI–XII вв. Ўзбекистон археологияси. – Самарканд, 2016. № 2. – С. 31–43.

¹⁰⁰ Ахмедов Ж.З., Хошимов Х.Б. Археологик об'ектларни музейлаштириш муаммолари (Фарғона водийси ёлгорликлари мисолила) // Ўзбекистон археологияси. – Самарканд, 2016. № 2. – Б. 79-83.

2. Абдуллаев Б.М. Қадимги Фарғона урбанизациясининг айрим хусусиятлари. Ўзбекистон археологияси. – Самарқанд, 2016. № 2. – Б. 13–23.
3. Абдуллаев Б.М. Некоторые итоги раскопок 2014–2015 гг. на памятнике Коштепа-2. Ўзбекистон археологияси. – Самарқанд, 2016. № 1. – С. 25–49.
4. Абдуллаев Б.М., Хошимов Х.Б. Проблемы изучения древней и средневековой истории Ферганской долины. Ўзбекистон археологияси. – Самарқанд, 2015. № 1. – С. 118–121.
5. Абу Райхан Мухаммед ибн Ахмед Ал-Бируни. Собрание сведений для познания драгоценностей (минералогия). Пер. А.М. Беленицкого. – Санкт-Петербург, 2011. – С. 213–222.
6. Аҳмедов Ж.З., Хошимов Х.Б. Археологик объектларни музейлаштириш муаммолари (Фарғона водийси ёдгорликлари мисолида). Ўзбекистон археологияси. – Самарқанд, 2016. № 2. – Б. 79–83.
7. Анарбаев А.А. Яна Фарғона (Даван–Дайюан) пойтахт шаҳарларининг локализацияси ва у билан боғлиқ мунозарали масалалар ҳақида. Ўзбекистон археологияси. – Самарқанд, 2010. № 1. – Б. 65–73.
8. Анарбаев А.А., Насриддинов Ш. Ахсикент ёдгорлигида 2018–2019 йилларда олиб борилган археологик тадқиқотлар ва у ерда ташкил қилинаётган “Очиқ осмон остида музей” ҳақида. Ўзбекистон археологияси. – Самарқанд, 2019. № 2. – Б. 132–138.
10. Асқаров А.А. Мархаматга ташриф ва Ерши мудофааси ҳақида мулоҳазалар. Ўзбекистон археологияси. – Самарқанд, 2010. № 1. – Б. 144–153.
11. Джуракулов М.Д., Аванесова Н.А. Историография эпохи бронзы Средней Азии. – Самарқанд: СамГУ, 1983. – С. 60.
12. Иванов Г.П. Риштон шаҳри тарихи бўйича янги маълумотлар. Ўзбекистон археологияси. – Самарқанд, 2011. № 1. – С. 82–84.
14. Караева З. Кольца и перстни из раннесредневекового могильника Мунчактепа. Ўзбекистон археологияси. – Самарқанд, 2021. № 2. – С. 68–74.
15. Матбабаев Б.Х., Абдуллаев Б.М., Хошимов Х.Б., Сайфуллаев Б.К. Следы первобытного человека в Андижанской области. Ўзбекистон археологияси. – Самарқанд, 2018. № 2. – С. 116–142.
16. Матбабаев Б.Х., Реутова М.А. Мунчоктепа мозорқўрғони. Органик материалларда тайёрланган буюмлар реставрацияси (V–VI асрлар). Ўзбекистон археологияси. – Самарқанд, 2019. № 1. – С. 56–63.
18. Мирзахмедов Ж.К., Матбобоев Б.Х., Султонова М.Н. Андижоннинг ўрта аср сопол идишлари. Ўзбекистон археологияси. – Самарқанд, 2010. № 1. – С. 73–79.
20. Мухаммадиев А. Палеолитда тош-хомашёсидан фойдаланиш муаммоси. Ўзбекистон археологияси. – Самарқанд, 2020. № 4. – Б. 53–69.
21. Оманов Ш. Ахсикентдан топилган қўлда ясалган безакли “чойнка” тўғрисида. Ўзбекистон археологияси. – Самарқанд, 2020. № 4. – С. 103–107.
22. Хотамова М. Биоархеология ва унинг тадқиқот усуллари. Ўзбекистон археологияси. – Самарқанд, 2020. № 3. – Б. 44–56.